Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini raqamlashtirishni takomillashtirish metodologiyasi jarayonlari	872
Muxammadov Nodir Karimovich	
O'zbekiston eksport salohiyatini soliqlar yordamida rag'batlantirish	880
Mahmudova Sevara Rahmat qizi	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar	883
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Сравнительный анализ правовых инструментов контроля трансфертного ценообразования в налоговой, таможенной и антимонопольной сферах	887
Бекзод Умматов	



Yaponiya startap tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish istiqbollari	892
Xazratova Shohsanam Xasanboy qizi	



YAPONIYA STARTAP TAJRIBASINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Xazratova Shohsanam Xasanboy qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Tashqi iqtisodiy faoliyat 2-kurs magistranti

E-mail: x.shohsanam92@gamil.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yaponiyaning startaplar va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi tajribasi hamda ushbu modelni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Yaponiya iqtisodiyotining so'nggi yillardagi makroiqtisodiy dinamikasi, startap ekotizimining tuzilishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, normativ-huquqiy baza hamda mavjud muammolar o'rganilgan. Yaponiyaning J-Startup dasturi, regulativ sandbox tizimi, venchur kapital siyosati, universitet-startap klasterlari va innovatsion infratuzilmasi kabi elementlar batafsil tahlil qilinib, O'zbekiston startap ekotizimini rivojlantirishda qo'llash uchun takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, regulativ muhitni soddalashtirish, startap vizalari, soliq imtiyozlari, ilmiy-tadqiqot grantlari va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish kabi chora-tadbirlarning milliy sharoitga moslashtirilgan modeli taklif etiladi.

Kalit so'zlar: yaponiya startap ekotizimi; innovatsiyalar; regulativ sandbox; venchur kapital; J-Startup; universitet-startap klasteri; normativ-huquqiy baza; O'zbekiston startaplari; soliq imtiyozlari; tadbirkorlik madaniyati.

Abstract: This article analyzes Japan's experience in the development of startups and innovations, as well as the possibilities of applying this model in the context of Uzbekistan. The study examines Japan's recent macroeconomic dynamics, the structure of its startup ecosystem, government support mechanisms, regulatory framework, and existing challenges. Key elements such as the J-Startup program, the regulatory sandbox system, venture capital policy, university-startup clusters, and innovation infrastructure are discussed in detail. Proposals are developed for adapting these instruments to foster the development of Uzbekistan's startup ecosystem, including regulatory simplification, introduction of startup visas, tax incentives, research and development grants, and promotion of entrepreneurial culture.

Key words: japan's startup ecosystem; innovations; regulatory sandbox; venture capital; J-Startup; university-startup cluster; regulatory framework; Uzbekistan startups; tax incentives; entrepreneurial culture.

Аннотация: В данной статье анализируется опыт Японии в развитии стартапов и инноваций, а также возможности применения данной модели в условиях Узбекистана. В ходе исследования изучены макроэкономическая динамика Японии за последние годы, структура стартап-экосистемы, механизмы государственной поддержки, нормативно-правовая база и существующие проблемы. Подробно рассмотрены такие элементы, как программа J-Startup, система «регулятивной песочницы», политика венчурного капитала, университетско-стартапные кластеры и инновационная инфраструктура. Разработаны предложения по использованию данных инструментов для развития стартап-экосистемы Узбекистана, включая упрощение регулятивной среды, внедрение стартап-виз, налоговых льгот, грантов на научно-исследовательскую деятельность и развитие предпринимательской культуры.

Ключевые слова: стартап-экосистема Японии; инновации; регулятивная песочница; венчурный капитал; J-Startup; университетско-стартапный кластер; нормативно-правовая база; стартапы Узбекистана; налоговые льготы; предпринимательская культура.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon miqyosida startaplar va innovatsion texnologiyalar milliy iqtisodiyotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Innovatsion faoliyatning jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va yangi texnologiyalar asosidagi biznes-modellarning shakllanishi taraqqiyotning yangi bosqichiga olib keldi. Bunday sharoitda startaplar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki bandlik, raqobatbardoshlik va xalqaro integratsiya jihatidan ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Jahonning yetakchi mamlakatlari qatorida Yaponiya ham startaplar va innovatsiyalarni rivojlantirish borasida ulkan natijalarga erishgan ¹. Yaponiya dunyodagi eng yirik uchta iqtisodiyotdan biri bo'lib, texnologik yetakchiligi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, robototexnika, biotexnologiya va yashil energiya sohasidagi startaplari bilan ajralib turadi ². Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan aniq strategiyalar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari, regulativ sandbox va startap vizalari kabi mexanizmlar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda ³.

O'zbekiston Respublikasi ham startaplarni milliy iqtisodiyotning yangi lokomotivi sifatida ko'rmoqda. Mamlakatda axborot texnologiyalari, elektron hukumat, raqamli xizmatlar va innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yaponiyaning tajribasi O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyaning startaplar va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi siyosati, normativ-huquqiy bazasi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va ekotizim tajribasini o'rganish hamda ushbu modelni O'zbekiston sharoitida qanday tatbiq etish mumkinligini tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur mavzuga doir ilmiy manbalar Yaponiyaning startap ekotizimi yuksalishida davlatning maqsadli siyosati, institutlararo hamkorlik, klasterlashuv va "ochiq innovatsiya" kabi tamoyillarning o'zaro uyg'unligi muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. METI (Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi) ilgari surgan J-Startup dasturi hamda startaplar va yangi bizneslarni qo'llab-quvvatlash paketlari — mazkur modelning markaziy bo'g'inidir. Dastur 2018-yildan buyon yuqori salohiyatli startaplarni tanlab, JETRO va xususiy sektor bilan hamkorlikda ularni xalqaro bozorga olib chiqishga yo'naltirilgan xizmatlar majmuini taklif etadi. Shu bilan birga, METI startap vizalari va boshqa institutlar orqali ham ekotizimni kuchaytiradi.

Davlat tomonidan muhitni "tajriba va xatolar" orqali yumshatish mexanizmlaridan biri — Reglamentiyaviy sandbox (regulatory sandbox) hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi yagona aloqa nuqtasi orqali turli sohalarda (fintex, sog'liqni saqlash, mobilitet va b.) real sharoitlarda huquqiy to'siqlarsiz sinovlar o'tkazishga ruxsat beriladi; sinov natijalari normativlarni yangilashga xizmat qiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, Startap vizalari mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikda xorijiy tadbirkorlarga biznesni yo'lga qo'yish davrida mamlakatda istiqomat qilish imkonini beradi. Tokiodagi "One-Stop" markaz kabi infratuzilma yechimlari bu jarayonni soddalashtiradi.

Japoniya innovatsion infratuzilmasining ilmiy-texnik tayanchi NEDO dasturlarida ko'rinadi: texnologiyaga asoslangan startaplarni izlab topishdan tortib, ularni tijoratlashtirishgacha bo'lgan to'liq siklni qo'llab-quvvatlash, deep-tech yo'nalishlarida ko'p yillik R&D grantlari, SBIRni kuchaytirish hamda GX/UPP dasturlari kabi mexanizmlar mavjud. Bu yondashuv startaplar uchun uzoq muddatli, riskli, ammo katta ijtimoiy ta'sir potentsialiga ega yo'nalishlarda barqaror moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Henry Chesbrough (2003) "ochiq innovatsiya" konsepsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, g'oyalar va texnologiyalar oqimini korporatsiya ichidan tashqariga (hamda aksincha) ochish orqali tezlashtirilgan tijoratlashtirishni asoslaydi. Yaponiya amaliyotida bu korporativ venchur kapitali, korporatsiya-startap hamkorliklari va klasterlarda "select-connect-go" kabi platformalar orqali ro'yobga chiqmoqda. O'zbekiston sharoitida, yirik korxonalar oldiga startaplar bilan hamkorlik KPI'larini qo'yish, CVC fondlari va texnologiya transfer ofislarini uyg'unlashtirish Chesbrough modelini milliy kontekstga olib kiradi.

Masahiko Aoki (2001) institutlar tahliliga tayangan holda iqtisodiy tizimlarning o'zaro moslashuvchanligi va barqarorligini tushuntiradi. Aoki nazariyasidan kelib chiqib, startap ekotizimini shakllantirishda bozor, davlat va universitet-sanoat hamkorligi o'rtasida "moslashuvchan komplementarlik"ni yaratish zarur: grantlar-soliq rag'batlari-xususiy fondlar-universitet TTO'lari bitta dizaynda ishlashi samaradorlikni oshiradi.

Kazuyuki Motohashi (2005) Yaponiyada universitet-sanoat hamkorligida yangi texnologiyaga asoslangan kichik firmalarning (NTBF) transformatsion rolini empirik ko'rsatadi. NTBF'lar orqali patentlar va bilim oqimlari bozor talabiga tez moslashadi. O'zbekistonda universitet-startap klasterlarini kuchaytirish, texnologiya lisenziyasi va spin-off mexanizmlarini soddalashtirish Motohashi tavsiyalariga mos keladi.

Kenji E. Kushida (2016–2022) Yaponiyada startap ekotizimi rivojining yangi bosqichini tahlil qilib, yirik korporatsiyalar, davlat va Silikon vodiysi bilan uzviy aloqalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. "Disruptiv" modeldan ko'ra "hamkorlikka asoslangan innovatsiya" (corporate-startup co-creation) Yaponiyada ko'proq ishlaydi; O'zbekistonda ham yirik korporatsiyalar uchun startaplar bilan birgalikda mahsulot/bozor yaratish dasturlarini institutsionallashtirish foydali bo'ladi.

¹ "The Sources of Economic Growth in Japan: What Do New Growth Accounting Methods Reveal?" - Abdulloev, I., & Silvapulle, M. J. (2014). *The Developing Economies*, x 52 x(4), 319-347.

² Khamidov, A., & Karimov, B. (2022). *Innovatsion iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.

³ Tanaka, Y. (2022). "Venture Capital and Startup Success in Japan." *Journal of East Asian Business Studies*, 15(1), 89–102.



Chihiro Watanabe va hammualiflar (2003 va keyingi ishlar) “institutSIONal elastiklik”, “ham-evolyutsion dinamika” tushunchalari orqali texnologiya va institutlar o‘zaro ta’sirini yoritadi. Ya’ni, normativ muhit moslashuvchan bo‘lsa, texnologik yangiliklar tezroq singadi. O‘zbekistonda sandbox, tezkor ruxsatlar va vaqtinchalik tartiblar orqali institutsional elastiklikni oshirish startaplar difuziyasini tezlashtiradi.

Mariana Mazzucato (2013) “Tadbirkor davlat” konsepsiyasi bilan yuqori xatarli, uzoq istiqbollilikka ega innovatsiyalarda davlatning “missiya-yo‘naltirilgan” roli hal qiluvchi ekanini ko‘rsatadi. NEDO va SBIR tipidagi dasturlar aynan mana shu ruhdagi institutlar bo‘lib, O‘zbekistonda ham yashil texnologiyalar, biofarm, agrotech kabi yo‘nalishlarda missiya-dasturlarni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Michael E. Porter (1990) milliy raqobat ustunligini klasterlar orqali tushuntiradi: talabchan ichki bozor, yetkazib beruvchilar va institutlar yaqinligi innovatsiyani tezlashtiradi. Yaponiyada Kyoto, Tokio-Yokogama kabi hududlarda texnologik klasterlar shakllangan. O‘zbekistonda Toshkent (fintex/AI), Farg‘ona (kimyo-polimer), Buxoro-Navoiy (energiya-materiallar) singari yo‘naltirilgan startap klasterlari Portersimon “olmos”ni shakllantiradi.

Robert E. Cole Yaponiyadagi tashkilot madaniyati, sifat boshqaruvi va hamkorlikka asoslangan o‘rganish amaliyotlari (kaizen, kichik guruhlar) innovatsion takomillashtirishni uzluksiz qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi. Startaplar uchun bu — mijoz bilan birgalikda dizayn, iterativ tajribalar va korporativ hamkorliklarda ijtimoiy kapitalni kuchaytirish degani.

Yaponiya tajribasi shuni anglatadiki: (i) maqsadli davlat dasturlari (J-Startup, NEDO, SBIR), (ii) reglamentiyaviy elastiklik (sandbox, startap vizalari), (iii) universitet-sanoat-startap bog‘lanishi va (iv) klasterlashgan hududiy infratuzilma uyg‘un ishlaganda ekotizim tez pishadi. O‘zbekistonda ushbu elementlarni milliy sharoitga mos ravishda — soliq imtiyozlari va grantlar bilan birga “korporatsiya-startap ko-yaratish” platformalari, TTO/inkubatorlar, missiya-dasturlar (masalan, suv-energiya tejamkorligi yoki agrotexnologiyalar) va hududiy klasterlar orqali uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Yaponiyaning startaplar va innovatsiyalarni rivojlantirish tajribasi hamda uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari o‘rganildi. Buning uchun bir nechta yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, tahliliy yondashuv orqali Yaponiya iqtisodiyotining so‘nggi yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari, startap ekotizimining tarkibi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari o‘rganildi. Keyin taqqoslama tahlil usuli yordamida Yaponiyada qo‘llanilayotgan mexanizmlar O‘zbekiston sharoitidagi mavjud imkoniyatlar bilan solishtirildi. Shuningdek, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli asosida Yaponiyada startaplar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va dasturlar, jumladan “Sanoatni tiklash strategiyasi”, “Regulyativ sandbox” tizimi, venchur kapital siyosati va soliq imtiyozlari o‘rganildi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o‘rganish yondashuvi yordamida boshqa ilg‘or davlatlar, xususan Yaponiya amaliyotidan foydalanish imkoniyatlari baholandi. Ushbu usullar birgalikda Yaponiyaning muvaffaqiyatli startap modelini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Yaponiya startap ekotizimining kuchli, tizimli va keng qamrovli tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mamlakatda startaplar rivoji uchun davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bir-birini to‘ldiradigan tarzda yo‘lga qo‘yilgan. J-Startup dasturi, regulyativ sandbox tizimi, venchur kapitalni rag‘batlantiruvchi qonunlar va startap vizalari ushbu tizimning asosiy tayanchlari sifatida belgilandi. Universitet-startap klasterlari, yirik korporatsiyalarning korporativ venchur kapitali, grant va subsidiyalar, kredit kafolatlari ham startaplarning moliyaviy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda ⁴.

Shuningdek, tadqiqot Yaponiyada mavjud bir qator tizimli muammolarni aniqladi. Bularga madaniy jihatdan riskka tayyorlikning pastligi, moliyalashtirishga kirishdagi qiyinchiliklar, mehnat qonunchiligining qattiqligi, demografik inqiroz va kadrlar tanqisligi kiradi. Shu bilan birga, bu muammolarni hal etish uchun hukumat aniq strategiyalar ishlab chiqib, moslashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, yapon modelining ayrim elementlari, xususan regulyativ sandbox, startap vizasi, R&D faoliyatiga soliq imtiyozlari, universitet-startap hamkorligi va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish choralari milliy ekotizimni mustahkamlashda samarali bo‘lishi mumkin. Ushbu elementlarni bosqichma-bosqich va mahalliy sharoitga mos holda tatbiq etish O‘zbekiston startaplarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

4 Yuldashev, U. (2021). *Startaplar va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri*. Toshkent: Fan va taraqqiyot



1-jadval. Yaponiya startap ekotizimining asosiy elementlari

Element	Tavsifi	Manba
J-Startup dasturi	Turli bosqichdagi startaplarga moliyaviy yordam, mentorlik va tarmoq imkoniyatlari taqdim etadi.	Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi
Regulyativ sandbox tizimi	Startaplarga qonuniy cheklolrsiz yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi.	Hukumat tartibga soluvchi organlari
Venchur kapitalni rag'batlantiruvchi qonunlar	Sarmoyadorlar uchun qulay sharoit va soliq imtiyozlarini yaratadi.	Venchur kapital qonunchiligi
Startap vizalari	Xorijiy tadbirkorlarga Yaponiyada biznes boshlash imkoniyatini beradi.	Immigratsiya siyosati
Universitet-startap klasterlari	Universitetlar va ilmiy muassasalar orqali texnologiyalarni tijoratlashtirishni ta'minlaydi.	Tokio, Kioto, Osaka universitetlari
Korporativ venchur kapital	Yirik korporatsiyalarning istiqbolli texnologiyalarga sarmoya kiritishi.	Sony, Toyota, SoftBank
Grant va subsidiyalar	Innovatsion loyihalar uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam.	Davlat byudjeti va maxsus fondlar
Kredit kafolatlari	Kichik biznes va startaplar uchun moliyaviy xavfsizlik ta'minlaydi.	Kichik va o'rta biznes agentligi

Yuqoridagi 1-jadval Yaponiya startap ekotizimining asosiy tarkibiy elementlarini, ularning vazifalarini va tegishli manbalarini aks ettiradi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yaponiya startaplarni rivojlantirishda davlat siyosati, normativ-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy rag'batlar va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini bir butun tizim sifatida qo'llagan ⁵. Har bir element – J-Startup dasturidan boshlab kredit kafolatlarigacha – startaplarning moliyaviy barqarorligi, texnologik rivoji va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu mexanizmlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib tatbiq etish milliy startap ekotizimini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.


Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yaponiya startap ekotizimi davlat siyosati, normativ-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi o'zaro uyg'unlashgan yaxlit tizimdan iborat. J-Startup dasturi, regulyativ sandbox, venchur kapitalni rag'batlantirish siyosati, startap vizalari, universitet-startap klasterlari va yirik korporatsiyalarning sarmoyaviy ishtiroki ushbu tizimning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi.

Biroq, Yaponiya tajribasi shuni ham ko'rsatadiki, kuchli iqtisodiyot va ilg'or texnologiyalarga qaramay, startaplar rivojiga ta'sir qiluvchi tizimli muammolar mavjud. Madaniy jihatdan riskka tayyorlikning pastligi, moliyalashtirishga kirishdagi qiyinchiliklar, mehnat qonunchiligining qat'iyligi, demografik inqiroz va gender tengsizligi shular jumlasidandir. Hukumat ushbu muammolarni yumshatish uchun moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqib, tartibga solish mexanizmlarini liberallashtirishga intilmoqda.

O'zbekiston sharoitida yapon modelini tatbiq etish masalasi bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Avvalo, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, regulyativ sandbox tizimini joriy etish, startap vizalari va soliq imtiyozlarini kengaytirish muhimdir. Keyingi bosqichda universitet-startap hamkorligini kuchaytirish, xususi venchur kapital bozorini rivojlantirish va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi lozim.

5 Nishimura, J. (2020). "Startup Accelerators and Incubators in Japan." Innovation Policy Journal, 7(1), 22–38.



1-rasm. Yaponiya va O'zbekiston startap ekotizimi elementlari taqqoslanishi.

1-rasmda Yaponiya va O'zbekiston startap ekotizimining asosiy elementlari bo'yicha rivojlanish darajasi 1–5 ball oralig'ida baholangan. Yaponiyada barcha elementlar to'liq shakllangan va yuqori darajada ishlaydi, O'zbekistonda esa ularning aksariyati rivojlanish bosqichida bo'lib, bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yaponiya startap ekotizimi mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, innovatsion texnologiyalar, davlat qo'llab-quvvatlovi va xususiy sektor sarmoyasi o'zaro uyg'unlashgan holda ishlaydi. 2023-yilda Yaponiyaning yalpi ichki mahsuloti 4 219,83 mlrd AQSH dollarini, aholi jon boshiga YAIM esa 33 899 dollarni tashkil etdi ⁶. Inflyatsiya darajasi 3,3 %, ishsizlik esa 2,6 % atrofida bo'ldi ⁷. Ushbu barqaror makroiqtisodiy ko'rsatkichlar startap va innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Yaponiya startap tizimining asosiy elementlari — J-Startup dasturi, regulyativ sandbox tizimi, venchur kapitalni rag'batlantirish qonunlari, startap vizalari va universitet-startap klasterlari — mamlakatning texnologik yetakchiligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, madaniy jihatdan riskka tayyorlikning pastligi, demografik inqiroz va moliyalashtirishga kirish qiyinligi kabi muammolar ham mavjud ⁸.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajribani tatbiq etish quyidagi afzalliklarni berishi mumkin: innovatsion ekotizimni tezroq shakllantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tijoratlashtirish va global startap bozorida milliy loyihalarining raqobatbardoshligini oshirish. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda startaplar sonini ko'paytirish va ularning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish bo'yicha davlat dasturlari faol amalga oshirilmoqda, ammo bu borada Yaponiyaning integratsiyalashgan modelidan foydalanish samaradorlikni yanada oshirishi mumkin.

Shunday qilib, Yaponiyaning startap ekotizimidan olingan ilg'or elementlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish iqtisodiy barqarorlik va texnologik rivojlanishning yangi bosqichiga chiqishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Khamidov, A., & Karimov, B. (2022). Innovatsion iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
2. Yuldashev, U. (2021). Startaplar va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Toshkent: Fan va taraqqiyot.
3. Murotov, D. (2023). "Yaponiya startap ekotizimining rivojlanish bosqichlari." Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 8(2), 67–73.
- 6 "The Sources of Economic Growth in Japan: What Do New Growth Accounting Methods Reveal?" - Abdulloev, I., & Silvapulle, M. J. (2014). The Developing Economies, x 52 x(4), 319-347.
- 7 Japan's Economy: An Overview" - The World Bank: <https://www.worldbank.org/en/country/japan/overview>
- 8 Nomura, S. (2020). "Startup Ecosystem in Japan: Trends and Government Support." Asia-Pacific Economic Review, 12(3), 45–56.



4. Aslamov, S. (2020). Yaponiya iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Nomura, S. (2020). "Startup Ecosystem in Japan: Trends and Government Support." *Asia-Pacific Economic Review*, 12(3), 45–56.
6. Tanaka, Y. (2022). "Venture Capital and Startup Success in Japan." *Journal of East Asian Business Studies*, 15(1), 89–102.
7. OECD. (2021). *SME and Entrepreneurship Outlook 2021: Japan Chapter*. Paris: OECD Publishing.
8. World Bank. (2022). *Doing Business 2022: Japan Profile*. Washington, DC: World Bank Group.
9. Japan External Trade Organization (JETRO). (2022). *Innovation and Startups in Japan: An Overview*. Tokyo: JETRO.
10. Ministry of Economy, Trade and Industry of Japan (METI). (2023). *White Paper on Small and Medium Enterprises in Japan*. Tokyo: METI.
11. Ishikawa, M. (2021). "Entrepreneurship Education in Japan: Challenges and Innovations." *Journal of Educational Innovation*, 9(2), 34–47.
12. Nishimura, J. (2020). "Startup Accelerators and Incubators in Japan." *Innovation Policy Journal*, 7(1), 22–38.
13. Fujimoto, T. (2019). *Technology and Innovation in Japan*. Tokyo: University of Tokyo Press.
14. Global Entrepreneurship Monitor (GEM). (2023). *Japan Country Report*. London: GEM Consortium.
15. Bank of Japan. (2023). *Economic Outlook and Startup Financing Trends*. Tokyo: BOJ Publications.
16. Japan Innovation Network (JIN). (2022). *Building a Sustainable Startup Ecosystem in Japan*. Tokyo: JIN Reports.
17. ADB (Asian Development Bank). (2021). *Startups and Innovation in Asia: The Japanese Experience*. Manila: ADB Publishing.
18. UNCTAD. (2020). *Science, Technology and Innovation Policy Review: Japan*. Geneva: United Nations.
19. Suzuki, H. (2018). *Entrepreneurial Culture and Risk Aversion in Japan*. Osaka: Kansai Economic Institute.
20. Kobayashi, R. (2022). "Cross-border Startup Growth: Japan's Role in the Asia-Pacific Region." *International Business and Trade Review*, 10(1), 58–70.
21. Startup Genome. (2023). *Global Startup Ecosystem Report: Japan Insights*. San Francisco: Startup Genome.
22. PwC Japan. (2022). *Japan Startup Outlook 2022*. Tokyo: PricewaterhouseCoopers.
23. JICA. (2021). *Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi innovatsion hamkorlik istiqbollari*. Toshkent: JICA O'zbekistan vakolatxonasi.
24. Toshkentdagi Yapon tili va madaniyati markazi (2022). *Yaponiyaning texnologik rivojlanish modeli va O'zbekiston uchun saboqlar*. Toshkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>